



Korxonaga kiritilgan materiallar va ishlab chiqarishga chiqarilgan materiallar tannarxi

**Nurniyozov Feruz
Abdurashidovich**

*Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti
"Buxgalteriya hisobi" kafedrasida
o'qituvchisi*

Abduraxmonova Mashhura

*SamISI Buxgalteriya hisobi va menejment
fakulteti 2-kurs BH-524-guruh talabasi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada korxonaga kiritilgan materiallar va ularning ishlab chiqarishga chiqarilish jarayonida shakllanadigan tannarx masalalari ilmiy-amaliy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot davomida materiallarning dastlabki qiymatini aniqlash, ularni hisobga olish tartibi hamda tannarxni shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, ishlab chiqarishga sarflanadigan materiallar tannarxini hisoblashda qo'llaniladigan usullar, jumladan, FIFO, LIFO va o'rtacha tortilgan qiymat usullarining mohiyati hamda ularning amaliy qo'llanish xususiyatlari ochib beriladi. Maqolada materiallar harakatini to'g'ri hujjatlashtirish, ularning buxgalteriya hisobida aks ettirilishi va ichki nazoratni tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari korxonalarda moddiy resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini aniq hisoblash va moliyaviy natijalarni ishonchli shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar:

materiallar hisobi, materiallar kirimi, ishlab chiqarishga chiqarish, materiallar tannarxi, xarajatlar hisobi, FIFO usuli, LIFO usuli, o'rtacha tortilgan qiymat, buxgalteriya hisobi, moddiy resurslar, ishlab chiqarish xarajatlari, tannarxni shakllantirish, ichki nazorat, hujjatlashtirish, iqtisodiy samaradorlik.

Hozirgi kunda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish sharoitida korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda buxgalteriya hisobi tizimi korxonalar faoliyatining barcha jihatlarini qamrab oluvchi asosiy boshqaruv vositasi sifatida namoyon bo'ladi. U nafaqat xo'jalik operatsiyalarini aks ettiradi, balki ularni tahlil qilish, nazorat qilish va asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotlarni taqdim etadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalarida material resurslari hisobini to'g'ri tashkil etish, ularning kirimi va ishlab chiqarishga chiqarilishini aniq aks ettirish hamda tannarxini hisoblash masalalari bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

Materiallar har qanday ishlab chiqarish jarayonining asosiy tarkibiy elementi hisoblanadi va ular ishlab chiqarish xarajatlarining katta qismini tashkil etadi. Materiallarning noto'g'ri hisobga olinishi yoki ularning harakati ustidan yetarli nazorat o'rnatilmasligi mahsulot tannarxining noto'g'ri shakllanishiga, ortiqcha xarajatlarning yuzaga kelishiga va korxonada moliyaviy natijalarining pasayishiga olib keladi. Shu sababli materiallar kirimi va ularni ishlab chiqarishga chiqarish jarayonlarini chuqur o'rganish, ularning tannarxini aniqlashning zamonaviy usullarini qo'llash va hisob tizimini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalarida materiallardan samarali foydalanish, ularning ortiqcha sarfini kamaytirish va tannarxni optimallashtirish masalalari bugungi kunda ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur mavzuning vazifalari maqsadga erishishga xizmat qiluvchi muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, materiallar tushunchasi va ularning iqtisodiy mohiyatini o'rganish, materiallarning korxonaga kirimini hujjatlashtirish va hisobga olish tartibini tahlil qilish, ishlab chiqarishga chiqarilgan materiallar hisobini o'rganish, materiallar tannarxini aniqlash usullarini, xususan FIFO, LIFO va o'rtacha qiymat usullarini chuqur tahlil qilish, materiallar harakati ustidan nazoratni tashkil etish va uni takomillashtirish yo'llarini aniqlash ushbu mavzuning asosiy vazifalari hisoblanadi. Shu bilan birga, materiallar hisobini to'g'ri yuritish orqali korxonada moliyaviy natijalarini yaxshilash, resurslardan samarali foydalanish va boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash ham muhim vazifalardan biridir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish korxonalarining samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan ularning moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi va ushbu resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir. Materiallar korxonaning ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi, o'z qiymatini tayyor mahsulot tannarxiga to'liq o'tkazuvchi va bir ishlab chiqarish siklida to'liq iste'mol qilinadigan mehnat buyumlari hisoblanadi. Shu sababli ular korxonada aylanma aktivlarining muhim qismini tashkil etadi hamda ularning hisobini to'g'ri tashkil etish muhim iqtisodiy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida materiallar hisobi va ularni moliyaviy hisobda aks ettirish tartibi 4-son BHMS – Tovar-moddiy zahiralari talablari asosida tartibga solinadi. Mazkur standartga muvofiq, tovar-moddiy zahiralari tarkibiga ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan xom ashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar, yoqilg'i, ehtiyot qismlar va boshqa moddiy resurslar kiradi. Standartga ko'ra, materiallar aktiv sifatida e'tirof etilishi uchun ular kelgusida iqtisodiy naf keltirishi va ularning qiymatini ishonchli aniqlash mumkin bo'lishi zarur.

Materiallarning iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, ular ishlab chiqarish jarayonining moddiy asosini tashkil etadi va ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxida asosiy ulushni egallaydi. Ayniqsa, sanoat korxonalarida material xarajatlari umumiy ishlab chiqarish xarajatlarining katta qismini tashkil etadi. Shu sababli materiallardan samarali foydalanish, ularning ortiqcha sarfini kamaytirish va yo'qotishlarning oldini olish korxonada rentabelligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Materiallar hisobini tashkil etishda ularni baholash muhim o'rin tutadi. Amaldagi tartibga ko'ra, materiallar dastlab ularning haqiqiy tannarxi bo'yicha hisobga olinadi. Materiallarning tannarxiga ularni sotib olish qiymati, transport-

tayyorlov xarajatlari, yuklash-tushirish xarajatlari, bojxona to'lovlari va boshqa bevosita xarajatlar kiradi. Bu esa materiallarning real qiymatini aks ettirishga va mahsulot tannarxini to'g'ri hisoblashga xizmat qiladi. Keyinchalik materiallar ishlab chiqarishga chiqarilganda ularning qiymati tanlangan baholash usuliga muvofiq aniqlanadi. Amaliyotda FIFO, LIFO, AVECO ya'ni o'rtacha qiymat usullari keng qo'llaniladi.

FIFO (First In – First Out) usuli bo'yicha birinchi kirgan materiallar birinchi bo'lib ishlab chiqarishga chiqariladi va bu usul materiallar xarajatlari oqimini taxmin qilish va nazorat qilishda keng qo'llaniladi. FIFO usulining asosiy mohiyati shundan iboratki, korxonaga birinchi kirib kelgan mahsulotlar yoki xomashyo birinchi bo'lib sotiladi yoki ishlab chiqarishda ishlatiladi, natijada ombordagi qolgan zaxiralar eng yangi, ya'ni so'nggi xarajatlar asosida baholanadi. Ushbu usul ishlab chiqarilgan mahsulot bilan bog'liq xarajatlarni keyingi ishlab chiqarish bosqichlariga o'tkazish va tayyor mahsulotlar sotilganda xarajat sifatida tan olish imkonini beradi. FIFO usulida avval sotib olingan materiallar qiymati birinchi navbatda xarajat sifatida tan olinadi, shuning uchun jami inventarizatsiya qiymati bosqichma-bosqich kamayadi, chunki materiallar korxonaga egaligidan chiqarilib, ishlab chiqarishga yoki sotishga yo'naltiriladi.

LIFO (Last In – First Out) usuli bo'yicha oxirgi kirgan materiallar birinchi bo'lib ishlab chiqarishga chiqariladi, natijada yangi va qimmatroq materiallar ishlatiladi va mahsulot tannarxi yuqoriroq ko'rsatiladi, lekin bu usul ba'zi xalqaro standartlarda cheklangan yoki qo'llanishi taqiqlangan.

Oxirgi kiruvchi, birinchi chiqadi (LIFO) - bu biznes inventarizatsiyasini hisobga olish uchun ishlatiladigan usul bolib, seriyadagi eng so'nggi ishlab chiqarilgan narsalarni birinchi sotilganlar sifatida qayd etadi. Ya'ni, eng so'nggi sotib olingan yoki ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxi birinchi bo'lib sotilgan mahsulot tannarxi sifatida hisobga olinadi, ko'pincha pastroq bo'lgan eski mahsulotlarning tannarxi esa inventar sifatida hisobot qilinadi.

O'rtacha qiymat usuli materiallar va inventarlarni baholashda keng qo'llaniladigan usullardan biri bo'lib, uning mohiyati barcha kirib kelgan inventarlar qiymatini ularning umumiy miqdoriga bo'lib, bir birlik materialning o'rtacha xarajatini aniqlashdan iborat. Shu o'rtacha qiymat asosida materiallar ishlab chiqarishga chiqariladi yoki sotiladi. Ushbu usul nafaqat xarajatlarni barqarorlashtirishga yordam beradi, balki moliyaviy hisobotlarda narx o'zgarishlarining kutilmagan ta'sirini kamaytiradi.

Materiallarni ishlab chiqarishga chiqarish korxonaga ishlab chiqarish faoliyatining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, ushbu jarayonda omborda mavjud moddiy resurslar ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun beriladi va ularning qiymati ishlab chiqarish xarajatlariga o'tkaziladi. Materiallar ishlab chiqarishga chiqarilganda ular xarajat sifatida e'tirof etiladi va mahsulot tannarxining tarkibiy qismiga kiritiladi, bu esa amaldagi buxgalteriya qoidalariga mos ravishda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, materiallarning o'z vaqtida va yetarli miqdorda ishlab chiqarishga berilishi ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi, aks holda ishlab chiqarish jarayoni to'xtab qolishi yoki samaradorligi pasayishi mumkin.

Materiallarni ishlab chiqarishga chiqarish jarayoni albatta tegishli hujjatlar asosida rasmiylashtiriladi. Bunda korxonalarda talabnoma, limit-zabor kartasi, ichki harakat dalolatnomalari kabi hujjatlar qo'llaniladi va ular orqali materiallarning qaysi miqdorda, qaysi bo'limga hamda qanday maqsadlar uchun berilganligi aniq qayd etiladi. Ayniqsa, limitlash tizimi muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda har bir ishlab chiqarish bo'limi uchun material sarfi me'yorlari belgilanadi va materiallar aynan shu me'yor doirasida beriladi. Bu esa ortiqcha sarf-xarajatlarning oldini olishga yordam beradi va ishlab chiqarish xarajatlarini nazorat qilish imkonini yaratadi.

Buxgalteriya hisobida materiallarni ishlab chiqarishga chiqarish tegishli schyotlar orqali aks ettiriladi. Bunda materiallar hisobga olingan schyot kreditlanadi, ishlab chiqarish xarajatlari schyoti esa debetlanadi. Ya'ni debetda – 2010, kreditda – 1010 pravodkada aks etadi. Bu yozuv orqali materiallarning ishlab chiqarishga berilganligi va ularning qiymati mahsulot tannarxiga o'tkazilganligi ko'rsatiladi. Ushbu yozuvlar asosida keyinchalik mahsulot tannarxi shakllanadi va korxonaning moliyaviy natijalari aniqlanadi.

Mazkur mavzuni chuqur o'rganish natijasida korxonaga kirim qilinadigan materiallar va ularning ishlab chiqarishga chiqarilishi jarayonida tannarxni to'g'ri shakllantirish korxonada faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri ekanligi yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Materiallar qiymatini asosli ravishda aniqlash, ularni buxgalteriya hisobida to'liq va o'z vaqtida aks ettirish ishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri hisoblash hamda moliyaviy natijalarni ishonchli shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, materiallar kirimi jarayonida ularning boshlang'ich tannarxiga faqat sotib olish qiymati emas, balki transport, yuklash-tushirish, sug'urta va boshqa qo'shimcha xarajatlarning ham kiritilishi zarur. Bu esa materiallarning haqiqiy qiymatini aniqlash imkonini beradi. Ishlab chiqarishga chiqarilayotgan materiallar tannarxini hisoblashda esa FIFO, LIFO va o'rtacha tortilgan qiymat usullaridan foydalanish korxonada hisob siyosatiga mos ravishda amalga oshirilishi lozim. Har bir usulning o'ziga xos afzallik va cheklovlari mavjud bo'lib, ular ishlab chiqarish xarajatlari va foyda miqdoriga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, materiallar harakatini to'g'ri hujjatlashtirish, ombor hisobi va buxgalteriya hisobini uyg'un tashkil etish, ichki nazorat tizimini kuchaytirish orqali moddiy resurslar ustidan samarali boshqaruvni ta'minlash mumkin. Bu esa o'z navbatida ortiqcha sarf-xarajatlarning oldini olish, resurslardan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, korxonalarda materiallar tannarxini aniq va asosli hisoblash, ularning harakatini tizimli nazorat qilish hamda zamonaviy hisob usullaridan oqilona foydalanish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu asosda korxonalarda hisob siyosatini takomillashtirish, ilg'or usullarni joriy etish va amaliyotda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 4-son BHMS – Tovar-moddiy zahiralar. – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan.
2. Lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari milliy bazasi.

3. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartlari to‘plami. – Toshkent:
4. Moliya vazirligi, so‘nggi nashr. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy uslubiy ko‘rsatmalari va materiallari (2021–2024 yillar).
5. Hasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. – Toshkent, 2005.
6. Jalolxo‘jayev Y. FIFO va LIFO metodlari. – Toshkent, 2025.
7. Pardaev A.X., Pardaeva Z.A. Boshqaruv hisobi. – 2019.
9. Tashnazarov S.N.. (2018) Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. (MHXS va ilg‘or xorijiy tajribalar asosida).
10. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2018.